



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI BORASIDA HAMKORLIK IMKONIYATLARI

Boqiyev Rustam Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti

Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabasi.

Moliya sohasida boshqaruv yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida qayta tiklanadigan energiya manbalarining salohiyati, mavjud holati va ushbu yo'nalishda mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Quyosh, shamol, gidro va boshqa energiya manbalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi ko'rib chiqilgan. Mintaqaviy energetik integratsiya, ilmiy-texnik hamkorlik, investitsiyalar va umumiy strategik yondashuvlar asosida barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'llari maqolada o'rganilgan.

ВОЗМОЖНОСТИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ОБЛАСТИ ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье будет проанализирован потенциал, текущее состояние возобновляемых источников энергии в государствах Центральной Азии и возможности регионального сотрудничества в этом направлении. Рассматривается распределение солнечных, ветровых, гидроэнергетических и других источников энергии по регионам. В статье рассматриваются пути обеспечения устойчивого развития на основе региональной энергетической интеграции, научно-технического сотрудничества, инвестиций и общих стратегических подходов.



OPPORTUNITIES FOR COOPERATION ON RENEWABLE ENERGY IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES

Abstract:

This article will analyze the potential, current state of renewable energy sources in the countries of Central Asia and the possibilities of regional cooperation in this direction. The distribution of solar, wind, hydro and other energy sources by region has been considered. Ways to ensure sustainable development on the basis of regional energy integration, scientific and technical cooperation, investments and general strategic approaches are studied in the article.

Kalit soʻzlar: qayta tiklanadigan energiya, Markaziy Osiyo, hamkorlik, yashil energetika, quyosh energiyasi, shamol energiyasi, energetik xavfsizlik.

Kirish

Energetik xavfsizlik, ekologik barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot soʻnggi yillarda global miqyosda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish nafaqat atrof-muhit muhofazasi, balki resurslarga boy boʻlmagan mamlakatlar uchun muqobil energiya manbalarini rivojlantirish imkonini beradi. Markaziy Osiyo davlatlari – Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Tojikiston, Qirgʻiziston va Turkmaniston – bu borada yuqori salohiyatga ega boʻlib, mintaqaviy hamkorlik asosida ushbu sohani barqaror rivojlantirish imkoniyatlariga ega.


Metodlar. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlikni oshirish yangi texnologiyalar va ilmiy yangiliklarni boʻlishish, quyosh energiyasi, shamol energiyasi kabi jihatlar maqolada alohida eʼtirof etilgan.

Natijalar. 2018 yilda O'zbekiston Parij kelishuvini ratifikatsiya qildi (Parij, 2015 yil 12 dekabr) va 2030 yilga kelib yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlari chiqindilarini 2010 yil darajasiga nisbatan 10 foizga kamaytirish bo'yicha milliy

majburiyatni qabul qildi. "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" ga muvofiq, 2030 yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko'prog'iga yetkazish nazarda tutilgan. Shuningdek, energiya samaradorligi ko'rsatkichini ikki baravar oshirish va yalpi ichki mahsulotning uglerod sig'imini pasaytirish, aholining 100 foizi va iqtisodiyot tarmoqlari uchun zamonaviy, arzon va ishonchli energiya ta'minotidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash rejalashtirilgan.

Qayta tiklanadigan energiya manbalariga to'xtaladigan bo'lsam.

Bular:



1-rasm. Qayta tiklanadigan energiya manbalari.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

1) Quyosh energiyasi

O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston yiliga o'rtacha 270–300 quyoshli kunlarga ega bo'lib, bu hududlarda quyosh panellarini samarali foydalanish imkonini beradi. Quyosh radiatsiyasi 1400–1800 kVt/m² atrofida. O'zbekistonning Navoiy, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari yuqori salohiyatli zonalardir.



2) Shamol energiyasi

Qozog‘istonning shimoliy va g‘arbiy hududlari, O‘zbekistonning Jizzax va Navoiy viloyatlari, shuningdek, Turkmanistonning ayrim qismlari shamol resurslariga ega. Ayrim joylarda shamol tezligi 6–9 m/s ni tashkil etadi, bu esa kichik va o‘rta quvvatli shamol turbinalarini joylashtirish uchun yetarlidir.

3) Gidroenergetika

Tojikiston va Qirg‘iziston katta suv resurslariga ega. Rog‘un va Nurek GES (Tojikiston) kabi inshootlar mintaqada energiyani barqaror manbasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ammo bu infratuzilmaning aksariyati modernizatsiyani talab qiladi.

Hamkorlik imkoniyatlari va istiqbollari

1. Energetik integratsiya

CASA-1000 loyihasi Tojikiston va Qirg‘izistondan Afg‘oniston va Pokistonga ortiqcha yozgi energiyani eksport qilishni ko‘zda tutadi. Bu loyiha kelajakda O‘zbekiston va boshqa davlatlarni ham qamrab olishi mumkin. Yagona elektr tarmoqlari tizimi mintaqada elektr ta‘minoti barqarorligini oshiradi.

2. Ilmiy-texnik hamkorlik

Birgalikdagi ilmiy markazlar, innovatsion texnologiyalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqot institutlari va kadrlar tayyorlash dasturlari yordamida mintaqada yangi energiya texnologiyalari rivojlantirilishi mumkin.

3. Investitsion hamkorlik

Yashil energetikani rivojlantirish uchun xalqaro donorlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, GEF, UNDP kabi tashkilotlar bilan birgalikda grantlar, subsidiyalar va yashil obligatsiyalar asosida fondlar shakllantirish mumkin.

Amaldagi loyihalar va real sheriklik

- Qozog‘iston–O‘zbekiston o‘rtasida energiya almashinuvi bo‘yicha amaliy hamkorlik mavjud.



- Tojikiston–O‘zbekiston: Rog‘un GES borasida suv-energiya balansini saqlash maqsadida muzokaralar olib borilmoqda.
- Qirg‘iziston–Qozog‘iston: shamol energiyasi bo‘yicha ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Hamkorlikdagi to‘siqlar

- Suv resurslari borasidagi kelishmovchiliklar (ayniqsa, gidroenergetik infratuzilmalarda).
- Davlatlar orasida energiya siyosatining bir xillikdan yiroqligi.
- Texnologik resurslar va moliyalashtirish imkoniyatlarining notekisligi.
- Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarning yetarli emasligi.

Xulosa

Markaziy Osiyo mintaqasida qayta tiklanadigan energiya salohiyati nihoyatda katta. Unga to‘laqonli erishish uchun davlatlar o‘rtasida chuqur hamkorlik, ilmiy-texnik integratsiya, investitsion muhitni yaxshilash va yagona strategik yondashuv zarur. Shu yo‘l bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi malakatlar uchun nafaqat energetik mustaqillik, balki barqaror yashil iqtisodiyotga o‘tish imkoniyati ham yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asian Development Bank. Renewable Energy in Central Asia: Status and Outlook. 2021.
2. International Renewable Energy Agency (IRENA). Renewables Readiness Assessment: Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan.
3. CASA-1000 Project Overview. www.casa-1000.org
4. UNDP Central Asia Energy Reports, 2020–2023.
5. Qayta tiklanadigan energiya manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hisobotlari.